

Uzbekistan Airways TAF!22 Toshkent reklama festivalida g'olib bo'ldi

2022 25 Oktabr

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi shu yilning 22-oktabr kuni o'tkazilgan Toshkent reklama festivalida ishtirok etdi. Eslatib o'tamiz, aviakompaniya Toshkent reklama festivalida 4 ta yo'nalish bo'yicha, ya'ni, "New", "Social", "Celebrities" va "SMM" nominatsiyalari bo'yicha qatnashdi. Deyarli bir oydan uzoqroq davom etgan ovoz berish jarayonida aviakompaniya xususiy korxonalar, mashhur kompaniyalar, internet-magazinlar va boshqa ko'plab tashkilotlar bilan eng yaxshi o'rinlar uchun raqobatlashdi. Festival natijalari ko'ra Uzbekistan Airways jamoasi "Mashhur shaxslar ishtirokidagi reklama kompaniyasi" bo'yicha oltin va "SMM" nominatsiyasida kumush sohibiga aylandi.

Uzbekistan Airways TAF!22 tanlovida aviakompaniyaga ovoz bergan barchaga o'z minnatdorchiligini bildiradi.